

Date: 29th October-2025

**“BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORATNI
SHAKLLANTIRISH USULLARI”**

Shukurova Madina O‘ktamovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Pedagogik mahoratning mohiyati, tarkibiy qismlari, shuningdek, uni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar yoritilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, raqamli ta‘lim vositalaridan foydalanishning o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida amaliyot, refleksiya, ijodiy muhit va mentorlik tizimining o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogik refleksiya, ta‘lim sifati, o‘qituvchilik san‘ati, raqamli ta‘lim.

Bugungi kunda ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – zamonaviy pedagogik fikrlashga, ilg‘or innovatsion texnologiyalarni o‘z faoliyatida samarali qo‘llay oladigan, kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan malakali o‘qituvchilarni tayyorlashdir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, shuningdek, Prezident farmon va qarorlari o‘qituvchi shaxsiga yuksak talablarni qo‘ymoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish – bu nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, balki kasbiy-ijodiy faoliyat, kommunikativ madaniyat, shaxsiy fazilatlar va pedagogik etika uyg‘unligini ta‘minlashni talab etadi. Shu bois, mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishning nazariy asoslari, tarkibiy qismlari, shuningdek, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

Pedagogik mahorat tushunchasi va uning mohiyati

Pedagogik mahorat — bu o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarga bilim berish bilan birga ularni har tomonlama kamol toptirish jarayonida zarur bo‘lgan kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Mashhur pedagog A.S. Makarenko ta‘kidlaganidek, “o‘qituvchilik – bu eng yuqori darajadagi san‘atdir”, demak, pedagogik mahorat ham o‘z mohiyatiga ko‘ra san‘atga xos noziklik, tafakkur va ijodkorlikni talab etadi.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik bilim – o‘qituvchining didaktika, psixologiya, metodika, pedagogik texnologiyalar haqidagi bilimlar majmui.



Date: 29th October-2025

Pedagogik qobiliyatlar – kuzatuvchanlik, nutq madaniyati, tashkilotchilik, empatiya, tahlil qilish va muammoni hal etish qobiliyatlari.

Pedagogik texnika – darsni tashkil etish, o'quvchilarni jalb etish, muloqot uslublarini to'g'ri tanlash, nutq va mimikani boshqarish.

Pedagogik odob va etika – o'qituvchining xulq-atvori, muloqot madaniyati, o'quvchilarga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat.

Demak, pedagogik mahorat – bu o'qituvchining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarining uyg'unlashgan holatidir.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish omillari

Pedagogik mahoratni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, u bir nechta omillar ta'sirida shakllanadi:

Kasbiy ta'lim sifati. Oliy ta'lim muassasalarida nazariy fanlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik amaliyot. Talabalarning maktablarda o'quv-amaliyot jarayonida bevosita dars o'tish, o'quvchilar bilan ishlash tajribasi pedagogik mahoratni oshiradi.

O'qituvchi shaxsining motivatsiyasi. O'qituvchilik kasbiga mehr va sadoqat, o'zini rivojlantirishga intilish mahoratning eng muhim omilidir.

Ijodiy muhit. Ta'lim muassasasida yaratilgan ijodiy, innovatsion muhit bo'lajak o'qituvchining tafakkurini kengaytiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchining darsni interaktiv shaklda tashkil etishiga yordam beradi

Bu omillar uyg'un holda ta'sir etgandagina bo'lajak o'qituvchining kasbiy salohiyati va mahorati yuksaladi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirish yo'nalishlari

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish

Kasbiy kompetensiya – bu o'qituvchining o'z faoliyatini mustaqil, samarali va ijodiy tarzda tashkil eta olish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Metodik kompetensiya – ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va qo'llash;

Kommunikativ kompetensiya – samarali muloqot o'rnatish;

Axborot kompetensiyasi – raqamli texnologiyalardan foydalanish;

Ijtimoiy va madaniy kompetensiya – jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Pedagogik refleksiya va o'zini tahlil qilish Har bir bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib, dars jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlashi va ularni bartaraf etish yo'llarini topishi zarur. Bu jarayon pedagogik refleksiya deb ataladi. Refleksiya o'qituvchiga o'z ustida ishlash, yangilikka intilish, tajriba almashish imkonini beradi.

Pedagogik innovatsiyalarni o'rganish



Date: 29th October-2025

Hozirgi kunda “STEAM”, “Blended learning”, “Project-based learning”, “Case-study”, “Flipped classroom” kabi zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchi mahoratini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi bu texnologiyalarni puxta o‘rganib, o‘z amaliyotida qo‘llay olishi lozim.

Nutq madaniyatini shakllantirish

Pedagogik mahoratning ajralmas qismi bu – nutq madaniyatidir. O‘qituvchi nutqi mantiqan izchil, grammatik jihatdan to‘g‘ri, ifodali va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Talabavridayoq nutq texnikasini rivojlantirish, sahna nutqi, diktsiya, ovoz tembrini to‘g‘ri qo‘llash mashqlarini bajarish maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishda oliy ta’lim muassasasining roli

Oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, ularni amaliyot, seminar, loyiha ishlari, trening va master-klasslar orqali faol o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yishi lozim. Shu bilan birga:

Pedagogik amaliyotni real dars jarayonlari asosida tashkil etish;

Tajribali o‘qituvchilar bilan mentorlik tizimini joriy etish;

Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish;

Innovatsion laboratoriyalar va o‘quv studiyalarini tashkil etish kabi choralar samarali natija beradi.

Shuningdek, xalqaro hamkorlik dasturlari orqali xorijiy tajribani o‘rganish ham o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalarini boyitadi

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish – bu uzluksiz, izchil va tizimli jarayon bo‘lib, u o‘qituvchi shaxsining kasbiy, axloqiy va ijodiy kamolotini ta’minlaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi:

o‘quvchi shaxsiga individual yondashadi;

ta’lim jarayonini samarali boshqaradi;

o‘z faoliyatida innovatsion metodlardan foydalanadi;

ijtimoiy faol, ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalay oladi.

Shunday ekan, pedagogik oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa – bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini tizimli ravishda rivojlantirish, ularni kasbiy jihatdan yetuk, zamon talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uktamovna, S. M. (2025). DIALOGLAR ORQALI MULOQOT KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 64-69.
2. Uktamovna, S. M. (2025). MATN VA TASVIR ASOSIDA HIKOYA TUZISH. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 70-75.



Date: 29th October-2025

3. Uktamovna, S. M. (2025). SO 'Z BOYLIGINI OSHIRISH USULLARI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 58-63.
4. O'ktamovna, S. M. (2025). SAVOL-JAVOB ASOSIDA MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 27-32.
5. Uktamovna, S. M. (2025). TUSHUNCHALARNI NUTQDA TO 'G 'RI IFODALASH. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 21-26.
6. Uktamovna, S. M. (2025). QISQA SHE'R VA ERTAKLARNI YOD OLISHNING AHAMIYATI VA USULLARI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 39-45.
7. Uktamovna, S. M. (2025). TOVUSHLARNI TO 'G 'RI TALAFFUZ QILISHNI O 'RGATISH. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 46-51.
8. Uktamovna, S. M. (2025). MATNLARNI TINGLASH VA QAYTA HIKOYA QILISH. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 52-57.
9. Uktamovna, S. M. (2025). NUTQNI EMOTSIONAL IFODALASH. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 33-38.
10. Uktamovna, S. M. (2025). QO 'G 'IRCHOQLAR YORDAMIDA SAHNALASHTIRILGAN O 'YINLAR. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(1), 15-20.

